



## MAKTABGACHA YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARNI INTELLEKTUAL QOBILYATINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

**Qodirov Furqat So'poqovich**

*Baxmal Pedagogika kolleji O'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni intellektual qobilyatini shakllantirish mexanizmlari haqida yozilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli ta'lim bilan ta'minlash uchun ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish zarur hisoblanadi. buning uchun bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashga xizmat qiladigan barcha pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish talab etiladi.

**Kalit so'zlar:** faoliyat, imkoniyat, xususiy turkumlar, tashkil etish, rahbarlik qilish, samaradorlik.

Maktabgacha ta'limning sifati ta'limning keyingi bosqichlarida bolalarning bilimlarni sifatli o'zlashtirishlarini kafolatlaydi[1]. Buning uchun maktabgacha ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishga oid yagona talablarni ishlab chiqish lozim. Ushbu talablar sifatli ta'lim va tayanch ko'nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Bu talablar asosida bolalarga ta'lim berish 3 yoshdan boshlanadi va 7 yoshgacha davom etadi.

Maktabgacha ta'limni individuallashtirish tamoyili o'zida bir qator talablarni mujassamlashtiradi. Bu esa o'ziga xos tabiiy jarayon hisoblanadi. Jamiyatning rivojlanishi barobarida shaxs faoliyati ham ko'proq darajada individuallashtiriladi va uning mavqei o'zgaradi. Agar mamlakat va jamiyat qanchalik rivojlangan bo'lsa, unda har bir inson alohida qadrlanadi va o'z o'rniga ega bo'ladi[2].

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim bolalarni kompleks rivojlantirishga yo'naltiriladi[45]. Yangi davr talablariga ko'ra maktabgacha ta'lim yangi shakldagi ijtimoiy institut hisoblanadi. Shuning uchun ham u bolalarning qatnashi va muayyan bilimlarni o'zlashtirishlari, rivojlanishlari uchun qulay bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'limning sifati davr talablari nuqtai nazaridan yondoshgan holda muntazam tahlil qilinishi lozim. Bu jarayonda barcha bolalar uchun teng imkoniyatga ega bo'lgan dastlabki bilim va tushunchalar shakllantiriladi[3].



Ta'lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o'z tuzilishi va faoliyat mazmunini o'zgartirishi zarur. Bugungi kunda ta'limning jamiyat rivojlanish sur'atlaridan ortda qolayotganligi, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalarning zamonaviy talablarga to'liq javob bermasligi haqidagi masala dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez e'tirof etilmoqda[4]. Chunki ta'lim ham ijtimoiylashtirish vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o'zgarishlar ortidan borishi hamda uning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazishi kerak. Biroq jamiyat rivojlanishi va ta'lim tizimi o'rtasidagi munosabat murakkab ko'rinishga ega bo'lib, yuqori darajadagi jo'shqinlik bilan farqlanadi[46]. Ta'lim barcha faol va sust o'zgarishlar ta'sirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo'layotgan voqealarga esa o'z ta'sirini o'tkazadi[5]. Ana shu nuqtai nazardan ta'limdagi o'zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o'ziga xos rivojlanish shartidir[6].

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda[7].

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo'lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi[8].

Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko'lamining ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda[9]. Ammo ko'plab pedagogik innovatsiyalarning yaratilayotganiga

qaramay, ta'lim jarayonlariga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini tadbiq etish bo'yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi[10].

Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o'rgana borib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir[11]. Tarbiyalanuvchilarni intellektual qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasi o'rganildi va quyidagicha qiyosiy tahlil qilindi[12].

Yaponiyada oilaviy byudjetning katta qismi bolalarning sara maktablarida puxta bilim olishlarini ta'minlashga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi ushun barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Imtihon paytlarida esa, bolalar uy yumushlaridan ozod etiladilar[13]. Ota-onalar maktab hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etadilar, ular o'z farzandlariga barcha sohada o'rnak namunadirlar. Ular o'z bolalari o'qishiga yordam berish ushun juda ko'p o'qiydilar, maktab o'quv dasturini mukammal o'rganib oladilar[14].

Bolalar tarbiyasida onalarning roli va ma'suliyati kattadir. Ular o'zlarini farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo'lib o'sishlari ushun oila sulolasi va davlat oldida mas'ul deb hisoblaydilar[16]. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniya orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi[15].

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar uchun ota-onalar oyiga o'rtacha 2-3 dona kitob sotib olishadi. Shu yoshdagi bolalar uchun oyiga 40 jarida nashr etiladi, ota-onalarning mutloq ko'pchiligi bu jaridalarga obuna bo'lishadi[17]. Bola maktabga borgunga qadar o'qishni, yozishni, oddiy hisoblash ko'nikmalarini egallashi zarur[18].

Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal yon tomonidan muhofozalangan qurilma bo'lib, parta ustida kitob javoni, yoritgich, soat, qalam, qog'oz, mikrokalkulyator va zaruriy ashyolar, shuningdek, kerak bo'lib qolgan taqdirida ota-onasini



chaqiradigan signal tugmachalarigacha o'rnatilgan. Bolalar bog'chalari[19]. Ta'limning bu bosqishiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9 foizi xususiydir. 40,8 foizi munisipial (tuman) kengashlari tasarrufida, qolgan 0,3 foizi esa davlat ixtiyorida[20].

Buyuk Britaniya noyob madaniyat va an'analar davlati hisoblanadi. Ingliz ta'lim berish tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri deb hisoblanadi. Britaniya ta'lim dasturlari eng yuqori standartlarga mos keladi[21]. Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'lim berish kambagal ishchi oilalar bolalariga ko'ngilli yordam berish xarakteriga asosan vujudga kelgan. 1816 yilda Robert Ouen ilk bor Shotlandiyada o'z fabrikasi ishchilarining farzandlari uchun ilk bor bolalar bogchasini ochgan. XX asr boshlarida opa-singil Makmillanlarning tashabbusi bilan bir nechta bolalar bogchalari ochilib, ularda asosan kam ta'minlangan oilalar farzandlarining salomatligi va yaxshi ovqatlanishlari uchun gamxo'rlik ko'rsatilgan[22].

Rossiya ta'limining tarkibini o'quv dasturlari va turli pog'onali davlat standartlari hamda yo'nalishlari, shuningdek boshqaruvchi tashkilotlar - ta'lim tizimidan tashqari va ta'lim tizimiga bo'ysunuvchi muassasalar tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim Rossiya Federatsiyasi o'qitish tizimining birinchi pog'onasidir[23].

Eng kichik yoshdagi bolalar uchun ham ta'lim olish imkoniyatini berish goyasi 1918 yilda "Yagona mehnat maktabi to'grisidagi Nizom" ishlab chiqilgandan so'ng paydo bo'lgan. Nizom qabul qilingan kundan boshlab har bir bola tug'ilganidan boshlab o'qish huquqiga ega bo'lishi mumkinligi kafolatlangan[24].

Bugungi kun ta'lim standartlari "Bolalar huquqlari xalqaro Konvensiya"da ifodalaniib, unda quyidagilar ta'kidlanadi:

- bolalar ta'lim olish maskanlariga qatnash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak;
- kattalar bolalarga o'qish faoliyati uchun sharoit yaratib berishlari lozim[25];



- ta'lim o'z ichiga kichik odamni jamiyat doirasida o'z hayotini tushunib yetishga tayyorlash uchun barcha kerakli sharoitlarni qamrab olgan bo'lishi zarur;

- o'quv jarayoni qatnashchilarining o'zaro harakatlari bolani hurmat qilishni ifoda-lashga asoslangan bo'lishi kerak[26].

Rossiyadagi maktabgacha ta'lim tizimi doimo o'zgaruvchan holatda bo'lib, u muntazam ravishda yangilanadi, ko'rinishini o'zgartiradi va mukammallashib boradi.

Bola uchun ilk ustozlar uning ota-onasi hisoblanadi. Ular bolalarni gudakligidan jismonan, intellektual va axloq masalalarida tarbiyalashlari lozim. Maktabgacha tarbiya tashkilotlari (MTT) faoliyati oilalarga bilim olish va tarbiyaning keyingi bosqichida yordam berishga qaratilgan[27].

Germaniyada maktabgacha ta'lim tizimi. Germaniya qonunlarida maktabgacha ta'lim olishning bepul huquqi belgilangan. Bolalarni 4 oyligidanoq yaslga olib borish mumkin. Ko'pchilik nemislar bu huquqdan foydalanadilar. Nemislarda kekxa avlod vakillari bo'lmish buvi va buvalar nevaralar tug'ilgandan so'ng nafaqaga chiqib, ularga qarash majburiyatlari tushunchasi yo'q. Shuning uchun ota-onalar bolalarini bolalar bog'chalari va yaslga berishga majbur bo'ladilar. Freinet-Kindergarten[28]. Maktabgacha pedagogikaning bu yo'nalishi o'z nomini bolalar tarbiyasiga o'ziga xos yondoshish usulini ishlab chiqqan italiyalik oilaviy juftlik familiyasidan olingan. Bu yo'nalishning asosiy tamoyili - bolaning butunlay erkinligi va mustaqilligidir. Freinet-bogchasida bolalar nima qilishlari, qanday o'yin o'ynashlari, nima bilan shug'ullanishlari, qachon ovqatlanishlari va uxlashlarini o'zlari hal qiladilar[29]. «Bolalar konferensiyasi» deb atalmish yig'ilishlarda bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xulq-atvor qoidalarini o'zlari belgilashadi. Bunday bog'chalarda ijod qilish, syujet-rolli o'yinlari, eksperimentlar, tabiat qo'yni yoki shaharning korxon va tashkilotlarig'a ekskursiyaga borishlarga katta ahamiyat beriladi[30].

Integ'ratsion bolalar bog'chalari. Bunday turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida soglom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruhiy nosoglom bolalar birgalikda tarbiyalanadi. Bunday sharoit oddiy bolalar uchun chidamlilik, bagrikenglik va hurmat qilishni o'rganishga ajoyib imkoniyat, deb qaraladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar



jamiyatdan ajralgan holatda bo'lmaydilar, o'z tengdoshlari bilan muloqot va hamjihatlikda bo'ladilar[31].

Evristik o'qitish metodi Evristik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning echimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi[32]. O'rnatilgan masalani echish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar. Evristik metod o'qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil etish olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar[33]. Ular odatda yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang'ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra birmuncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda[34]. Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek, buyuk didakt I.YA.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan[35].

Polshada maktabgacha ta'limni bolalar bog'chasida yoki maktabdagi maxsus sinflarda oladi. «Nolovoy sinf» 6 yoshdagi hamma bolalar uchun majburiydir. Hamma bog'chalarda polyak bolalari maktabda o'zini qanday tutishi kerakligi haqida o'rgatib boriladi. • Haqiqiy maktabga tayyorgarlik ko'rish jarayonida bolalar o'qishni, yozishni va chizishni o'rganadilar[36]. Jismoniy tayyorgarlikka ko'p vaqt berilgan. Hamma mashg'ulotlar o'yin tarzida olib boriladi. • Bolalar bog'chaga 3 yoshdan boshlab boradi. • Ota-onalar bola tarbiyasini tajribali pedagoglarga ishonishadi hattoki uylari bog'chadan uzoq bo'lsa ikki haftalab qolishi mumkin. Yuqori narxlarda shaxsiy bog'chalar faoliyat yuritadi hamda ular murakkab dasturlar asosida bolalarni maktabga tayyorlaydi. Xorijiy



tildan bir yoki ikkitasi o'rgatiladi. Oilada boshlang'ich ta'lim dasturini o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi[37].

Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud[38].

Maktabgacha ta'lim jarayonida ham bolaning mustaqil hamda intellektual rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjud. Bu jarayonda pedagogik faoliyat muayyan bolani intellektual rivojlantirish uchun uni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi muhim ahamiyatga ega[40]. Pedagogik faoliyatni muayyan maqsadga yo'naltirish uning mavjudligini inkor etmaydi balki ko'lamini kengaytiradi[44]. Faqatgina muayyan natijada ifodalangan aniq faoliyat o'z samarasini beradi. Tarbiyachining pedagogik faoliyati uning maqsadi, fikri, ish uslubiga mos kelishi lozim[39].

Tarbiyachilarning harakatlarida bunday holatlar juda kam uchraydi. Ular ko'pincha bir-biri bilan uyg'unlashgan bo'ladi. Sabablarni ifodalovchi omillarning o'zaro uyg'unligi va bog'liqligi, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining intellektual rivojlanishlarida umumiy tarzda sustkashlikning vujudga kelishiga asos bo'ladi[41]. Bolalarni intellektual rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va pedagogik chora-tadbirlar mashg'ulotlarning qiziqarliligini ta'minlab qolmasdan, bolalarni intellektual rivojlantirishga alohida hissa qo'shadi[42]. Masalan, aksariyat o'g'il bolalar harflarni yozish, she'r yodlashda dastlab qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunday paytlarda ular o'z muvaffaqiyatsizliklaridan uyala boshlaydilar. Buning natijasida ular mashg'ulotlarga istamasdan qatnashadilar[43]. Hatto ular maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnashni ham xohlamay qoladilar.

### ADABIYOTLAR:

1. Babanazarovich, N. H. (2020). Technology of organization of integrated lessons in teaching biology. *European journal of research and reflection in educational sciences*, 8(2).



2. Норбутаев, Х. Б. (2018). Технологии Развивающего Обучения В Системе Образования. *Гуманитарный трактат*, (29), 33-35.
3. Норбутаев, Х. Б. (2017). Формирования Экологического Знания У Школьников Изучение Учебных Материалов По Физики. *Апробация*, (2), 95-96.
4. Babanazarovich, N. H. (2021). Using of Innovative Educational Technologies in the Improvement of Ecological Thinking by Pupils in the Field of Biology Sciences. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(6), 84-88.
5. Narbutaev, N. B. (2021). Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. *Current Research Journal Of Pedagogics*, 2(10), 12-16.
6. Норбўтаев, Х. Б. (2016). Бошланғич синф табиатшунослик дарсларида инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш методикаси. *Современное образование (Узбекистан)*, (6), 34-39.
7. Норбўтаев, Х. Б. (2020). Биологияни Фанлараро Синфдан Ташқари Машғулотларда Ўқитишда Ўқувчилар Экологик Тафаккурини Ривожлантириш Методикаси. *Современное образование (Узбекистан)*, (8 (93)), 74-79.
8. Норбутаев, Х. (2012). Мактаб уқувчиларида экологик тафаккурни фанлараро шакллантириш (биология ва физика фанлари мисолида). *Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати*.
9. Narbutaev, K. V. (2020). RAISING THE ECOLOGICAL CULTURE OF THE STUDENT IN TEACHING BIOLOGY IN CONNECTION WITH OTHER DISCIPLINES. *Theoretical & Applied Science*, (6), 714-717.
10. Babanazarovich, N. H. (2021). The essence of integration in primary education classes.
11. Babanazarovich, N. H. (2022). IMPROVING THE KNOWLEDGE OF ECOLOGICAL CONTENT IN PUPILS IN INTERDISCIPLINE FOR TEACHING BIOLOGY. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
12. Норбўтаев, Х. Б. (2018). Бошланғич синфларда фанлараро экологик тарбия. *Современное образование (Узбекистан)*, (11), 53-58.
13. Narbutaev, N. B. (2021). Natural inter subjects formation of ecological thinking in school pupils. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 419-426.
14. Норбўтаев, Х. Б. (2015). Бошланғич синфларда дидактик ўйинли таълим технологияларидан фойдаланиш самарадорлиги. *Современное образование (Узбекистан)*, (6), 64-70.
15. Норбутаев, Х. Б. (2018). МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ИНТЕРАКТИВНЫХ ИГР НА КЛАССНЫХ И ВНЕКЛАССНЫХ ЗАНЯТИЯХ. *Редакционная коллегия: Главный редактор (учредитель) ИП Всяких Максим Владимирович, кандидат экономических наук*, 53.
16. Норбутаев, Х. Б. (2018). Развитие Экологического Мышления У Школьников При Изучение Учебных Материалов По Биологии The Development Of Ecological Thoughts Of Pupils Through Learning Of Biology. *Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 16*.
17. Норбўтаев, Х. Б. (2020). Биологияни Фанлараро Синфдан Ташқари Машғулотларда Ўқитишда Ўқувчилар Экологик Тафаккурини Ривожлантириш Методикаси. *Современное образование (Узбекистан)*, (8 (93)), 74-79.
18. Zebiniso, K. (2022). Forming of universals culture values and upbringing learners idea of peace. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 1830-1834.
19. Қодирова, А. Б. (2022). АБУ АБДУЛЛОҲ МУҲАММАД ИБН АЛИ ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ “ОҚИЛЛАР ВА АЛДАНГАНЛАР” АСАРИДА НАФС ТАРБИЯСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. *Science and innovation*, 1(В3), 119-124.
20. Қодирова, А. Б. (2019). The views of Al Khakim At-Termizi on the theory of cognition. *Psixologiya*, (1), 88-90.
21. Kodirova, A. B. (2022). ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL VIEWS IN THE WORKS OF AL-HAKIM AT-TERMIZI ACCORDING TO THE SCIENTIFIC CONTENT AND THE THEORY OF SUFISM. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 1287-1292.
22. Kodirova, A. B. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE USE OF THE MYSTICAL IDEAS OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 1281-1286.
23. Qodirova, A. (2022). УЛУҒ МУҲАДДИС ИМОМ АТ-ТЕРМИЗИЙ ФАОЛИЯТИНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Science and innovation*, 1(В7), 1086-1090.
24. Abdullaeva, B., Yakubova, G., Mukhtarova, A., & Kodirova, A. (2020). Development of practical competencies of psychologists. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1143-1146.
25. Khimmataliev, D. O., Khakimova, M. F., Khamidov, J. A., Abdullaeva, R. M., & Daminov, L. O. Improving the professional competence of professional teachers, мақола. *Journal of Critical Review*, (103).
26. Khimmataliev, D. O., Olmov, K. T., Abdullaeva, R. M., Ergashev, B. V., & Chulponova, K. T. (2021). Mechanisms of professional competence development in future teachers based on pedagogical and technical knowledge. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2950-2958.





27. Абдуллаева Р. Лидерлик ва раҳбарлик сифатларининг боғлиқлик жиҳатлари. Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар. Республика илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплави. 2019:255-6.
28. Абдуллаева, Р. (2022). ТАЪЛИМДА ТАЛАБАНИНГ ИНДИВИДУАЛ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ҲИСОБГА ОЛИШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1986>.
29. Usmanovna, A. N. (2021). The role of parents in the upbringing of children. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1995-1999.
30. Nargiza Alimova Usmonovna. (2022). RAISING CHILDREN IS THE BIGGEST RESPONSIBILITY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 1524-1529.
31. Usmonovna, A. N. (2022). FARZAND RUHIY TARBIYASIDA OTA-ONANING MA'SULLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Science and innovation*, 1(B3), 477-480.
32. Usmanovna, A. N. (2022). Parental Relationship in Child Raising Psychological Properties. *Eurasian Scientific Herald*, 14, 13-16.
33. Sharafutdinova, K. G. (2020). Destruction of family relations psychoprophylaxis family-neighborhood-educational institution cooperation. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1000-1007.
34. Шарафутдинова, Х. Г. (2021). OILADA DESTRUKTIV SHAXS XUSUSIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 231-236.
35. Sharafutdinova, K. G. (2021). THE ROLE OF TEMPERAMENT IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL AND DESTRUCTIVE INDIVIDUAL RELATIONSHIP STYLE. *Theoretical & Applied Science*, (8), 210-214.
36. Gulyamutdinovna, S. K. (2021). Manipulative relationship of a destructive person in the family. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 175-179.
37. Sharafutdinova, K. (2022). Advantages of focusing on positive psychology in eliminating destruction of family relations. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 423-430.
38. Sharafutdinova, K. (2022). Application of psychological methodologies in diagnosis of personal destruction.
39. Gulyamutdinovna, K. S. (2022). APPLICATION OF COGNITIVE PSYCHOTHERAPY IN THE DESTRUCTION OF FAMILY RELATIONS. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 5-10.
40. Хидирова, И. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНФОРМАЦИОННОЙ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИКЕ УЧАЩИХСЯ. In *Молодой исследователь: вызовы и перспективы* (pp. 93-96).
41. Хидирова, И. Н., & Гелдиева, Д. Э. (2020). ФОРМА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛАГОЛА В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *КУЛЬТУРОЛОГИЯ, ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ И ФИЛОЛОГИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ И НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 7-11).
42. Хидирова, И. Н. (2019). КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ КАК ОСНОВНАЯ ЦЕЛЬ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ ИНОСТРАННОМУ. *Интернаука*, (19-3), 16-17.
43. Хидирова, И., Саттарова, Г. Х., Карабаева, Д. Э., & Рахимов, Н. И. (2018). КАТЕГОРИЯ ВРЕМЕННОЙ ОТНЕСЕННОСТИ АНГЛИЙСКОГО ГЛАГОЛА. *Студенческий вестник*, (24-1), 49-51.
44. Niyozalievna, I. K., & Saitovna, K. T. (2022). Creating English environment in teaching esp.
45. Niyozaliyevna, K. I., & Saitovna, T. K. (2022). Using Interactive Methods In Learner-Centered Lessons. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 9, 68-70.
46. Niyozalievna, K. I. (2022). TO DEVELOP STUDENTS'WRITING SKILLS IN TEACHING ENGLISH. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 113-119.